

## **2026-2030-yillarda qon bilan ishlash xizmatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 20.01.2026-yildagi PQ-19-son**

Qarorga ko‘ra, qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarida quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi tizim yo‘lga qo‘yiladi:

2026-yil 1-oktyabrdan:

qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarida qon mahsulotlari xavfsizligi va sifatini ta‘minlash bo‘yicha barcha texnik va tibbiy jarayonlarni tartibga soluvchi standart operatsion jarayonlar hamda xavfsizlik bayonnomalari joriy qilinadi;

“ehtiyoj – qayta ishlash – yetkazish” zanjiri doirasida biznes jarayonlarini boshqarish tizimi joriy etiladi.

2027-yil 1-martdan “Qon mahsulotlari elektron hisobini yuritish” axborot tizimi joriy etiladi.

2026-yil 1-oktyabrdan qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarida qon mahsulotlarini majburiy tartibda 2 bosqichli skrining tekshiruvidan o‘tkazish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Qarorga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvardan beg‘araz qon donorligi harakatini rivojlantirish maqsadida quyidagi tizim joriy etiladi:

har oyda “Birga hayotni saqlaymiz” milliy donorlik aksiyasi o‘tkaziladi. Mazkur aksiya doirasida har oyning 1 haftasi mobaynida – qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarida, har oyning 3 haftasi mobaynida – ta‘lim, davolash va boshqa tashkilotlarda qon donorligi tashkil etiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimiga kiruvchi vazirlik, idora hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar harbiy xizmatchilari va xodimlari o‘rtasida har yili 1 marotaba donorlik kunlari o‘tkaziladi;

mehnat jamoalarida donorlik kunlarini o‘tkazish yo‘lga qo‘yiladi;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasbiy hamda oliy ta‘lim tashkilotlarida donorlik bo‘yicha ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir va uchrashuvlar tashkil etiladi.

Shuningdek, tug‘ruqda tibbiy yordam ko‘rsatuvchi har bir muassasada qon va uning tarkibiy qismlari shoshilinch zaxirasi tashkil etilishi hamda uni qon va uning tarkibiy qismlari, jumladan, plazma va eritrotsitar massa zaxirasi bilan ta‘minlanishi belgilandi.